KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695
QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
OAK: 01-08/1819/6
www.herald.kokanduni.uz

QORAQALPOQ TILI VA ADABIYOTI FANI O‘QUV MATERIALINI OLIY TA’LIM TIZIMIDA MUAMMOLI BAYON QILISH METODIKASI

Abdurazakova Nurjamal Salimatdinovna,
Urganch RANCH texnologiyalar universiteti, Nukus kompusi katta o‘qituvchisi, p.f.f,d.(PhD).
Orcid.org/0009-0009-2220-2299
abdirazakovanurjamal@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.54613/3c3x1c82

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ
Qabul qilindi: 6-noyabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 9-noyabr 2026-yil
Jurnal soni: 20-A
Maqola raqami: 8

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
innovatsion pedagogika, kreativ pedagogik yondashuv, mediatexnologiyalar, qoraqalpoq tili va adabiyoti fani, kasbiy-metodik kompetensiya, integrativ takomillashtirish, kommunikativ kompetensiya, hamkorlik, kreativ fikrlash, muammoni hal etish, innovatsion ta’lim

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ
Ushbu maqolada mediatexnologiyalar vositasida bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini integrativ takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, ularni qoraqalpoq tili va adabiyoti ta’lim jarayonida samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar hamda innovatsion o‘qitish metodlarining imkoniyatlari yoritilgan. Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini integrativ o‘qitishning ijodiy yo‘nalishini amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Maqolada muammoli ta’lim metodikasining didaktik imkoniyatlari, o‘quv materialini muammoli bayon qilish bosqichlari hamda talabalarni mustaqil izlanish va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini o‘qitishda muammoli vaziyatlardan foydalanish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari asoslangan. Muammoli ma’ruza, seminar va mustaqil ta’limning o‘zaro integratsiyasi ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida yoritilgan.

ABOUT THE PAPER
Accepted: 6 November 2026
Approved: 9 November 2026
Volume: 20-A
Paper number: 8

KEYWORDS
innovative pedagogy, creative pedagogical approach, media technologies, Karakalpak language and literature, professional and methodological competence, integrative enhancement, communicative competence, collaboration, creative thinking, problem-solving, innovative education

ANNOTATION
This article examines the theoretical and methodological foundations of the integrative enhancement of the professional and methodological competence of prospective Karakalpak language and literature teachers through media technologies. It explores the significance of media technologies in professional practice, pedagogical approaches that contribute to their effective integration into the teaching and learning process of Karakalpak language and literature, and the potential of innovative teaching methods. Particular attention is paid to the didactic conditions required for implementing the creative dimension of integrative instruction aimed at developing the professional and methodological competence of prospective Karakalpak language and literature teachers in higher education. The article explores the didactic potential of problem-based learning, the stages of presenting educational materials through problem-oriented approaches, and mechanisms for engaging students in independent inquiry and creative thinking. It also examines the use of problem situations in teaching Karakalpak language and literature, the integration of theoretical knowledge with practical activities, and the improvement of prospective teachers’ professional and methodological training through interactive methods and creative assignments. Particular attention is paid to the integration of problem-based lectures, seminars, and independent learning as an important condition for enhancing the effectiveness of the educational process.

Kirish

O‘quv materialini muammoli bayon qilish orqali bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. O‘qituvchi yangi materialni bayon qilishda uning metodik ta’minotini o‘zi ta’minlaydi. Bunda o‘qituvchi ziddiyatlarni ta’kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o‘z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. O‘qituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining fikr yuritishi, og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarining dars mashg‘ulotida o‘rganilayotgan materiallar bo‘yicha nutqiy va lingvistik kompetensiyalarga diqqatini jalb qiladi hamda bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarini adabiy ta’lim haqida fikr yuritishga majbur qiladi. O‘qituvchi mavzu doirasida savolni hal qilishidan oldinoq bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilari o‘z javoblarini tayyorlab qo‘yishlari va uni ma’lum muddat o‘tgach o‘qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi, chunki unda qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining adabiy ta’lim qoidalari, esse, diktant, bayon, insho shunchaki tasvirlab berilmaydi, balki tayyor xulosalar bayon qilinadi. O‘quv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yo‘lini yoritib berish bo‘lishi ham mumkin. O‘quv jarayonida keng tarqalgan metodlardan biri – shartli ravishda “O‘quv axborotlar bayonini muammoli boshlash” deb nomlanadigan metoddir.

Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod muammoli vaziyat faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilan farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Albatta, bu metod bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa, ijodiy metodida ko‘ringan ko‘nikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi, lekin dars mashg‘uloti ibtidosida olgan ijodiy materiallarni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uyg‘otishga bevosita turtki beradi. Yuqoridagi barcha metodlar orasida bu metod o‘zining oddiyligi bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko‘ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o‘quv materialiga bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zo‘riqish mashaqqatlariga olib kelish, bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko‘nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo‘lgan pedagogik, metodik, didaktik talablarini qondira olmasligini ko‘rsatishi, bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilariga o‘quv muammolarini tahlil qilishga, uning yechilishidagi eng maqbul metod va usullarni aniqlashda yordam berish kerak.

Adabiyotlar tahlili

Muammoli ta’lim metodikasini takomillashtirish, o‘quv materialini muammoli bayon qilish orqali talabalarning mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari pedagogika fanida turli nazariy va metodik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda N.N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning o‘zaro bog‘liqligini yoritib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, pedagogik vaziyatlarni boshqarish qobiliyati hamda talabalarning bilish faolligini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Muallifning yondashuvlarida ta’lim metodlarini maqsadga muvofiq tanlash, o‘quv faoliyatini izchil tashkil etish va pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘qitish samaradorligini ta’minlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi [1; 55–58-b.].

Muammoli ta’limning nazariy mohiyati va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishda P.O. Kudryavtsevning pedagogik qarashlari alohida ahamiyatga ega. Muammoli o‘qitishning shakllanishi va mohiyatiga oid nazariy yondashuvlar o‘quv jarayonida bilishga doir ziddiyatlarni yuzaga keltirish, mavjud bilimlar bilan yangi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan axborotlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash hamda talabalarni mustaqil izlanishga yo‘naltirish zaruratini asoslashga xizmat qiladi [8]. R.J. Ishmuhammedov esa innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish, o‘qitish samaradorligini oshirish va talabalarning faol ishtirokini ta’minlash masalalariga e’tibor qaratadi. Uning metodik qarashlari ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlarni interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘quv topshiriqlarini ijodiy faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatlarini kengaytiradi [9]. N. Saidahmedovning pedagogik texnologiyalar bo‘yicha qarashlarida ham o‘quv jarayonini oldindan loyihalashtirish, ta’lim maqsadlari va kutilayotgan natijalar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, o‘qitish metodlarini didaktik vazifalarga muvofiq tanlash masalalari muhim o‘rin egallaydi [11].

O‘. Tolipov va M. Usmonboyevalarning ilmiy-metodik yondashuvlarida pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari, ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari va amaliy metodlari keng yoritilgan. Mualliflar pedagogik texnologiyalarni ta’lim maqsadlariga erishishning yaxlit tizimi sifatida talqin qilib, o‘qituvchi va talaba faoliyatining o‘zaro muvofiqligini ta’minlashga alohida ahamiyat beradilar. Ushbu yondashuvlar qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini o‘qitishda muammoli vaziyatlarni yaratish, talabalarni savol va topshiriqlar ustida mustaqil ishlashga yo‘naltirish hamda o‘z fikrlarini ilmiy asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [12].

M.E. Axmedovaning ilmiy izlanishlarida ona tili ta’limida mustaqil ta’lim topshiriqlarini tasniflash, ularning mazmunini takomillashtirish va talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Muallif mustaqil ta’lim topshiriqlarini talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida asoslaydi. Mazkur yondashuvlar qoraqalpoq tili va adabiyoti fanida muammoli topshiriqlarni ishlab chiqish, ularni talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligi bilan bog‘lash hamda mustaqil ta’lim faoliyatini maqsadli tashkil etish imkoniyatlarini ochib beradi [2; 135–148-b.]. Shuningdek, muallifning oliy ta’limda o‘quv va mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirishga oid qarashlarida ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, topshiriqlarning murakkablik darajasini belgilash va ularning kasbiy faoliyat bilan aloqadorligini ta’minlash masalalari yoritilgan [3; 180–187-b.].

M.E. Axmedova va M. Altibayevaning lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli resurslar hamda o‘z-o‘zini baholash metodikasiga bag‘ishlangan ishlarida zamonaviy ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Mazkur yondashuvlar o‘quv jarayonida raqamli resurslardan foydalanish, talabalarning o‘zlashtirish darajasini mustaqil tahlil qilish va ta’lim faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodik mexanizmlarni ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir [4; 69–70-b.]. M.E. Axmedovaning modul-kredit tizimida ona tili fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzish metodikasiga oid qarashlari esa mustaqil ta’lim mazmunini tizimlashtirish, topshiriqlarni ta’lim maqsadlariga muvofiq ishlab chiqish va talabalarning individual bilish faoliyatini rivojlantirish masalalarini yoritadi [7].

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmuni va ularni loyihalashtirish masalalari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham o‘rganilgan. M.N. Guslova innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib, ta’lim jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va o‘qitishning samarali shakllarini tanlash masalalariga e’tibor qaratadi [16]. N.V. Matyashning yondashuvida loyihaviy ta’lim texnologiyasi talabalarning mustaqil izlanishi, muayyan muammoni aniqlashi, uni hal etish yo‘llarini ishlab chiqishi va olingan natijalarni amaliy jihatdan asoslay olishi bilan tavsiflanadi. Bunday metodik yondashuv muammoli ta’limni tashkil etishda talabalarning tadqiqotchilik va ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi [17]. G. Qudratulloh qizi, R. Ishmuhammedov va M. Normuhammedovalarning ta’limning an’anaviy va noan’anaviy shakllariga oid qarashlari esa o‘qitish jarayonida turli pedagogik metodlarni uyg‘unlashtirish, ta’lim ishtirokchilarining faolligini oshirish va o‘quv mashg‘ulotlarini mazmunan boyitish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [15].

B.S. Usmonov va R.A. Habibullayevning oliy ta’limda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etishga bag‘ishlangan metodik qarashlarida ta’lim mazmunini modullashtirish, auditoriya va mustaqil ta’lim faoliyatining uzviyligini ta’minlash hamda talabalarning individual o‘quv faoliyatini tashkil etish masalalari muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlar muammoli ta’lim topshiriqlarini mustaqil ta’lim bilan integratsiyalash, ularning bajarilish bosqichlarini belgilash va o‘zlashtirilgan bilimlarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish uchun metodik asos yaratadi [14].

Pedagogik texnologiyalar, muammoli ta’lim, mustaqil ta’lim topshiriqlari, loyihaviy yondashuv va raqamli resurslardan foydalanish masalalari pedagogika fanida

muayyan darajada tadqiq etilgan. Biroq qoraqalpoq tili va adabiyoti fanining o‘ziga xos lingvistik, adabiy-estetik va metodik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv materialini muammoli bayon qilish mexanizmlarini oliy ta’lim sharoitida tizimli tashkil etish, muammoli vaziyatlarni fan mazmuniga moslashtirish hamda ularni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi bilan uzviy bog‘lash masalalari yanada chuqur metodik yondashuvni talab etadi. Shu jihatdan mazkur maqolada qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini o‘qitishda muammoli bayon qilishning didaktik imkoniyatlari, uni amalga oshirish bosqichlari va talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik mexanizmlarni yoritish dolzarb ilmiy-metodik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi muammoli ta’lim, tizimli yondashuv, pedagogik tahlil va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini o‘qitishda muammoli vaziyatlarni yaratish talabalarning mavjud bilimlarini yangi sharoitlarda qo‘llash, nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni aniqlash hamda mustaqil yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta’lim jarayonida muammoli savollar, ijodiy topshiriqlar, qiyosiy tahlil, munozara va mustaqil izlanish metodlaridan foydalaniladi. Bunda talabalar adabiy asarlar mazmunini tahlil qilish, til hodisalarini taqqoslash, ilmiy tushunchalarni amaliy misollar bilan asoslash va o‘z fikrlarini mustaqil bayon etishga yo‘naltiriladi.

Muammoli o‘qitish uch bosqichda tashkil etiladi: birinchi bosqichda muammoni o‘qituvchi qo‘yadi va talabalarni uning yechimini izlashga yo‘naltiradi; ikkinchi bosqichda muammoli vaziyatni o‘qituvchi yaratadi, talabalar esa muammoni mustaqil shakllantirib, yechadilar; uchinchi bosqichda talabalar muammoni mustaqil aniqlash, shakllantirish va hal etish faoliyatini amalga oshiradilar.

Mazkur jarayonda o‘quv materialining mazmuni, talabalarning tayyorgarlik darajasi va kasbiy ehtiyojlari hisobga olinadi. Muammoli metodlarni seminar, ma’ruza va mustaqil ta’lim topshiriqlari bilan uyg‘unlashtirish, topshiriqlar murakkabligini oddiydan murakkabga qarab oshirib borish bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirishning muhim metodik sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari

Shu maqsadda ma’ruzada o‘quv jarayonida qoraqalpoq tili va adabiyoti fani ta’lim mazmunining umumiy qimmatini isbotlash bilan birga uning shaxs intellekti, dunyoqarashi, bilimlarni tasniflash va qo‘llash usullari, ulardan tejamli foydalanish hamda to‘g‘ri baholay olish tarbiyasiga ta’sir etishni ham isbotlash lozim bo‘ladi. Bunda muammoli o‘qitish jarayonini quyidagicha tashkillashtirish taklif etiladi [1; 4; 11; 12].

1-jadval.

Muamoli o‘qitish jarayoni

O‘qituvchi faoliyati. S+S formulasi asosida	**Bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchisi faoliyati. S+O formulasi asosida.**
1. Savol, tajriba yoki vaziyat ko‘rinishida muammoli o‘quv vazifasini talabaga taklif etadi. 2. Qo‘yilgan o‘quv topshirig‘i bo‘yicha talabalarning fikrlash faoliyatini tashkil etadi. 3. Muammoli vazifani echish variantlarini taklif etish, asoslash va o‘zlashtirilayotgan mavzuga bog‘lashni so‘raydi. 4. Muammoli-yo‘naltiruvchi savolar bilan talabalar bilimini tekshiradi va talabalar taklif etgan o‘quv muammosining yechimlarini umumlashtiradi, tahlil etadi. 5. O‘zlashtirilgan yangi bilimlarni mustahkamlash maqsadida savol ijodiy o‘quv topshiriqlarini beradi.	1. Muammoli topshiriqni tushunib, uni yechish yo‘llarini izlaydi. 2. Muammoni hal etish variantlarini taklif etadi. 3. Variantlardan birini muammo yechimi sifatida asoslaydi. 4. Tahlil va taqqoslash orqali masalani to‘g‘ri yechimini qidiradi. 5. Mavzu yuzasidan umumiy xulosaga keladi. 6. Mavzuni mustaqil mashqlar bajarish orqali mustahkamlaydi.

Agar o‘rganilayotgan mavzuning mohiyatini, ulardan foydalanishning zarur metodik materiallari va qoidalarini bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilari bilmasa va anglamasa, o‘qituvchi ularning ijodiy faoliyatini tashkil eta olmaydi. Demak, muammoli o‘qitish yetarli darajada samarali bo‘lishi uchun u yaxlit o‘quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo‘lishi kerak. Shuningdek, bunday eksperiment (amaliyot) egallangan bilimlar, fikrlarni (hukmlarni) ko‘rish usullarining haqiqiyligini tasdiqlashga qaratilganligi ta’kidlanishi lozim. Muammoli ma’ruzalar o‘tkazish jarayonida bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatga zarur bo‘lgan motivlar, qimmatli yo‘l-yo‘riqlar va yo‘llanmalarning shakllanganligi muhim o‘rin egallaydi. Ta’kidlash joizki, o‘quv faoliyati motivlarining doirasi juda ko‘p motivlar yig‘indisi bo‘lsa-da, ulardan ikki guruhi belgilovchi hisoblanadi [1; 3; 4; 11].

Bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining yuqorida bayon qilingan malakalarni rivojlantirish uchun ma’ruzani o‘tkazishga shunday tayyorgarlik ko‘rish ko‘zda tutilishi kerakki, ular tayyor bilimlarni chaqqonlik bilan harakat usullariga aylantira olsin. Bu didaktik maqsadga erishish uchun bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining yechimlarni qanday rivojlantirishlariga, u yoki bu ifoda qaysi talablar asosida qoniqtirilayotganiga, dastlabki omil, asos va xulosalarga diqqatni jalb qilish lozim. O‘qitishning bu metodini ma’ruza o‘qishning axborot-tasviriy yondashuvidan qisman ijodiy metodga o‘tish orqali amalga oshirish mumkin. Ular bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchisida ma’ruzaning turli bosqichlarida va sharoitlarida muayyan bilish mashaqqatlarini tug‘diradiki, ular o‘qitish jarayonida avval shakllangan bilim va ko‘nikmalarni joriy etish hamda qayta ishlash asosida muvaffaqiyatli hal qilinadi [2; 4; 5; 8].

Muhokama

Bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash tizimida o‘qituvchining ma’ruza jarayonida ularga e’tibor qaratishi, o‘quv-bilish faoliyatiga mos ko‘rsatmalarni bera olishi muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida dars mashg‘ulotlarining bunday borishi talabalarda ilmiy-nazariy tadqiqot va eksperiment o‘tkazish malakasini shakllantiradi, bu bilan ular ilmiy ijod kengligiga, ishchanlik muloqotiga chiqadi, tadqiqotning bosqichlarini rejalashtiradi, uning maqsad va vazifalarini ifodalaydi, metodikasini ishlab chiqadi [4; 10; 12].

Muammoli o‘qitishning talablar darajasidagi sifatini ta’minlash, talabalar tomonidan bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchisida o‘zlashtirilgan axborotlar bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida seminarlar o‘tkazish mumkin. Ma’lumki, bunday seminar o‘tkazishning dastlabki maqsadi ma’ruza yoki axborotni jamoa bo‘lib muhokama qilishdir. Seminar samaradorligi, albatta, bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchisini unga tayyorlash sifatiga bog‘liq. Ayniqsa, ma’ruza va axborot tayyorlayotgan bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti

o‘qituvchisi bilan ishlash muhim ahamiyatga ega [2; 5; 7; 9]. Muammoli bayon qilish jarayonida talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilish, ularni o‘zaro taqqoslash, ilmiy asoslash va umumlashtirish seminar mashg‘ulotlarining mazmunini boyitadi. Bu jarayonda talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlari bilan ishlashi, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda ifodalashi hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishi muhim ahamiyatga ega [2; 5; 7; 8].

Muammoli o‘qitish jarayonida muammoli vaziyatlarni oddiydan murakkabga tomon rivojlantirib borish, talabalarni mustaqil tadqiqot faoliyatiga jalb etish va ularning kasbiy-metodik tayyorgarligini izchil takomillashtirish zarur. Bunda muammoli ma’ruza, seminar va mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1; 4; 10; 12].

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatga tayyorlash tizimida o‘qituvchining ma’ruza jarayonida ularga e’tibor qaratishi, o‘quv-bilish faoliyatiga mos ko‘rsatmalarni bera olishi muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida dars mashg‘ulotlarining bunday borishi talabalarda ilmiy-nazariy tadqiqot va eksperiment o‘tkazish malakasini shakllantiradi, bu bilan ular ilmiy ijod kengligiga, ishchanlik muloqotiga chiqadi, tadqiqotning bosqichlarini rejalashtiradi, uning maqsad va vazifalarini ifodalaydi, metodikasini ishlab chiqadi.

Muammoli o‘qitishning talablar darajasidagi sifatini ta’minlash, talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlar bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida seminarlar o‘tkazish mumkin. Bunday seminarlarning samaradorligi bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining unga tayyorgarlik sifatiga bog‘liq. Ayniqsa, ma’ruza va axborot tayyorlayotgan bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchisi bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-T.: TDPU. 2006. 289-b.
2. Akhmedova M.E.Methodological classification of independent study tasks from mother language in continuous education. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research (ISSN – 2771-2141) VOLUME 04 ISSUE 03 PAGES: 135-148-p. SJIF IMPACT FACTOR (2024 - 8.166). Crossref doi: https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue_03-18. (Web of saynes).
3. Axmedova M.E. Oliy ta’limida o‘quv va mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirish vazifalari. Havola: https://gri-journal.uz Belarus–O‘zbek ilmiy-metodik jurnali. 2025 yil № 1-son. 180-187- bet.ISSN 2181-2896 . Havola: https://gri-journal.uz. (OAK)
4. Axmedova M.E., Altibayeva M.Lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli resurslar va o’z-o’zini baholash metodikasi. Til va adabiyot uz ilmiy metodik elektron jurnal. 2025 yil 18 noyabr. № 19-son. 69-70 bet. (OAK)
5. 5.Axmedova M.E. I. Tsay, T. Baituraev, G. Sharipova, S. Davlatov, Kh. Djumayeva, I.Rakhmatova. Adopting Agile Practices to Enhance Library Services and User Engagement in Modern Library Management. Indian Journal of Information Sources and Services ISSN:) Vol.16, No.1, 2026, pp.823-828 © The Research Publication, www.trp.org.in DOI: https://doi.org/10.51983/ijiss-2026.16.1.85. (Skopus).
6. Axmedova M.E., Sh. Kurtieva,, D. Achilov., G.Qurbonova., Sh. Kurbanova., A.Najmitdinov. Health Risks Associated with Habitat Loss and Fragmentation in Public and Animal Health Implications for Infectious Disease Transmission. 153-168-p. Havola: Journal of Animal http://www.aejournal.irhttp://www.aejournal.ir.
Environment (E-ISSN 2717-1396, ISSN 2717-1388) Journal homepage: Received: Accepted: 15 April 2025 (DOI): 10.70102/AEJ.2025.17.1.18 . (Web of saynes)
7. Axmedova M.E. Modul kredit tizimida ona tili fanlaridan mustaqil topsghiriqlar tuzish metodikasi.T.: 2025 yil. Firdavs shoh nashriyoti. 178-b.
8. Кудрявцев П.О. Проблемное обучение: истоки и сущност-Знание: 1991.456-с.
9. Ishmuxammedov R.J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari” – T.: 2000. 340-b.
10. Muminov K.A., “Raqamli-forsayt texnologiyalari sharoitida talabalar ta’lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish metodikasini takomillashtirish”, Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, ISSN: 2181-1695, 5-oktabr 2026-yil.208-210-bet.
11. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar -T.: Moliya nashr., 2003. 215-b.
12. Tolipov O‘., Usmanbaeva K.M. Pedagoik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari -T.: TDPU. 2006. 230-b.
13. Бабко Г. И. Модулные технологии обучения. Теория и практика проектирования / Г.И. Бабко. - М.: РИВШ, 2016**. -** 904 с.
14. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
15. Gulobod Qudratulloh qizi., R.Ishmuhamedov., M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – S: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
16. Гуслова, М.Н. Инновационные педагогические технологии: Учебник / М.Н. Гуслова. - М.: Асадемиа, 2018. - 672 с.
17. Матяш Н.В. Инновационные педагогические технологии: Проектное обучение: Учебное пособие / Н.В. Матяш. - М.: Асадемиа, 2017. - 422 с.
18. Muminova N.S., Kvest-texnologiyasi asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish. *Til va adabiyot.uz* ilmiy-metodik elektron jurnal, 2026-yil, 30-oktabr 20(88)-son.51-54-b.